



ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHGA OID SHARTNOMALARNING FUQAROLIK-HUQUQIY SHARTNOMALAR BILAN O'ZARO FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI, ULARNI MILLIY QONUNCHILIKKA TATBIQ QILISH USULLARI

Yo'ldashev Abbosbek Mo'minjon o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada islomiy moliyalashtirishga oid shartnomalarning ayrim keng tarqalgan turlari, ularning tushunchasi va asosiy xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, maqolada mazkur shartnomalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi o'xshash shartnomalar bilan taqqoslanadi va ularni qo'llash uchun qonunchilikdagi qaysi shartnoma shaklini tanlash afzal ekanligi, ularni qo'llashda nimalarga e'tibor berishi kerakligi haqida so'z yuritiladi.

DIFFERENCES AND SIMILARITIES BETWEEN ISLAMIC FINANCING CONTRACTS AND CIVIL LAW CONTRACTS, METHODS OF APPLYING THEM TO NATIONAL LEGISLATION

ABSTRACT

This article provides information on some common types of Islamic financing contracts, their understanding and main features. Also, the article compares these agreements with similar agreements under the legislation of the Republic of Uzbekistan, and it is discussed which legal form of agreement is preferable for their application, and what should be paid attention to when applying them.

Hozirgi paytda dunyoda amal qilayotgan foizli moliya tizimi ko'p jihatdan inqirozga moyil va buni dunyo aholisi ko'plab marotaba boshidan o'tkazgan. Bulardan 2008 yilda global miqyosdagi iqtisodiy inqiroz misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bunday inqirozlar soni va tahdidining ko'payishi dunyo hamjamiyati oldiga yangicha moliyaviy tizim ishlab chiqish zaruratini tug'dirdi. Shu sababli moliya bozoriga bir necha asrlar oldin paydo bo'lgan, biroq, kapitalizm rivoji natijasida soyada qolib ketgan islom moliyasi tushunchasi va islomiy moliyalashtirish tizimi alternativ tanlov sifatida kirib keldi.

Islom moliyasining eng muhim xususiyatlaridan biri bu aktivlar asosida ta'minlangan moliyalashtirish hisoblanadi. Moliyalashtirishning an'anaviy kapitalistik yo'nalishida banklar va moliya muassasalari faqatgina pul va monetar qog'ozlar bilan ishlashadi, shu sababli ko'plab mamlakatlarda mahsulotlar savdosi va mol-mulk ashyolari bilan ishlash taqiqlanadi. Islom dini esa ba'zi holatlarni hisobga olmaganda, pulni savdoning asosiy obyekti sifatida tan olmaydi. Chunki



pulning *intrinsic utility* degan ichki foydalilik xususiyati yo'q, u faqatgina ayirboshlash vositasi bo'lib xizmat qiladi¹.

Ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyot modelini ilgari surgan Islom iqtisodiyoti kapitalizmning foizga tayangan iqtisodiy modellarini inkor qiladi. Chunki Islomda sarmoya mehnatning natijasi bo'lsa, halol hisoblanadi. Unda kapitalizm kabi puldan pul chiqarib daromad olish taqiqlanadi. Insoniyatga berilgan eng mukammal din bo'lgan Islomda kelgusida foiz olish uchun sharoit, muhit yaratadigan pul jamg'arish ham ma'qullanmaydi².

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar islomiy moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari bo'lib, uni ananaviy moliyalashtirishdan asosiy farqlarini tushunishga xizmat qiladi. Islomiy moliyalashtirishga doir turli xil shartnoma shakllari mavjud bo'lib, ularning eng mashxurlari mushoraka, muzoraba, murobaha, salam, istisno kabilar hisoblanadi. Quyida ushbu shartnomalarning milliy qonunchilik normalarida belgilangan qoidalari bilan farqli va o'xshash jihatlarini yoritamiz.

Mushoraka. Mushoraka bu sherikchilikka asoslangan tijoratni moliyalashtirish usuli bo'lib, bunda ikki va undan ortiq shaxslarning birgalikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'zaro investitsiya kiritish orqali faoliyat yuritishidir. Mushoraka ikki xil turga bo'linadi. Bular *shirkatul amvol* va *shirkatul a'mal* hisoblanadi. Shirkatul amvolda tijoriy tadbirkorlik faoliyati uchun sheriklar tomonidan ma'lum bir miqdorda mablag' kiritiladi. Shirkatul a'malda esa barcha sheriklar xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun mablag' kiritishadi.

Mushoraka shartnomasining milliy qonunchilik tizimimizdagi muqobili sifatida xo'jalik shartnomalarini aytishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasiga ko'ra, muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo'lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo'lgan tijorat tashkiloti xo'jalik shirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, o'zining tadbirkorlik faoliyatini islomiy moliyalashtirishning mushoraka shartnomasi qoidalari asosida olib bormoqchi bo'lgan tadbirkorlar tomonidan muqobil tanlov sifatida milliy qonunchilikning xo'jalik shirkatlari to'g'risidagi qoidalaridan foydalanishlari mumkin.

Muzoraba. Muzoraba shartnomasi sheriklikning maxsus turini tartibga soluvchi shartnoma turi bo'lib, bunda bir sherik tomonidan sarmoya kiritiladi, ikkinchi sherik tomonidan esa mazkur sarmoya boshqariladi. Foyda taqsimotini esa sheriklar tomonidan kelishilgan ulushlarda bo'lishi mumkin. Sherikchilikdan ko'rilgan zarar esa sarmoya kiritgan taraf zimmasida qoladi, sarmoyani boshqargan taraf esa, qilgan mehnati va sarflagan vaqtiga kuyadi. Muzoraba shartnomasining

¹ Mufti Muhammad Taqiy Usmoniy. Islom moliyasiga kirish. – asar / Toshkent: "Azon kitoblari", 2023. – 15 b.

² Ehsan Shejonak. Global inqirozdan chiqish: Islom iqtisodi. – asar / Toshkent: "Iqro-Nashr", 2022. – 3 b.



mushorakadan asosiy farqi mushorakada sheriklarning barchasi sarmoya kiritadi va foyda va zarar ham barcha sheriklar o'rtasida taqsimlanadi.

O'z faoliyatlarini muzoraba asosida olib bormoqchi bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354-moddasiga ko'ra, taraflar qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkin. Taraflar turli shartnomalarning elementlarini o'z ichiga oladigan shartnoma (aralash shartnoma) tuzishlari mumkin. Aralash shartnoma bo'yicha taraflarning munosabatlariga, agar taraflarning kelishuvidan yoki aralash shartnomaning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, elementlari aralash shartnomada bo'lgan shartnomalar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi. Shartnomaning shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi, tegishli shartning mazmuni qonunchilikda ko'rsatib qo'yilgan hollar bundan mustasno.

Murobaha. Murobaha bu Fuqarolik kodeksida belgilangan oldi-sotdi shartnomasiga o'xshash shartnoma hisoblanib, birinchidan, mazkur shartnomada sotuvchi sotib oluvchiga mahsulotning tan narxi va o'zining ushbu savdodan ko'rayotgan foydasi haqida ma'lumot berishi lozim, ikkinchidan, shartnoma predmeti shartnoma tuzilgan paytda mavjud bo'lishi, uchinchidan, shartnoma predmeti bo'lgan narsa shartnoma tuzilgan paytda sotuvchining egaligida bo'lishi, to'rtinchidan, shartnoma tuzilgan paytda shartnoma predmeti bo'lgan mahsulot uchun huquq va majburiyatlar, risklar sotuvchida bo'lishi lozim. Mahsulot uchun haq to'lashni shartnoma shartlariga ko'ra kechiktirib to'lashni, shuningdek, bo'lib-bo'lib to'lashga ham kelishilishi mumkin.

Mazkur qoidalar asosida savdo faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lgan shaxslar shartnoma tuzishda Fuqarolik kodeksining oldi-sotdi shartnomasiga doir qoidalarni qo'llashlari mumkin. Bunda taraflar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan muhim jihat mazkur qoidalarning kontraktatsiya shartnomasiga doir qoidalarni qo'llashda hali yig'ishtirilmagan, pishib yetilmagan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini shartnoma predmeti sifatida belgilash mumkin emas. Shuningdek, mazkur shartnoma qoidalariga majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka belgilanishi mumkin emas.

Salam. Oldi-sotdi shartnomasining bir turi hisoblanib, bunda mahsulot uchun oldindan pul to'lanadi, mahsulot esa keyinroq yetkazib beriladi. Ushbu shartnoma Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan kontraktatsiya shartnomasining islomiy moliyalashtirishdagi muqobili sifatida namoyon bo'ladi. Biroq ushbu shartnomani tuzishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ba'zi holatlar mavjud. Ular quyidagilar hisoblanadi: birinchidan, salam shartnomasi shartnoma tuzilayotgan paytdagi narx bo'yicha tuziladi; ikkinchidan, shartnoma bo'yicha mahsulotlar uchun haq oldindan to'liq to'lanilishi lozim; uchinchidan, salam shartnomasi faqat soni va sifati aniq o'lchanadigan mahsulotlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin, mahsulotning sifati va hajmi (miqdori) haqida aniq kelishilishi lozim; to'rtinchidan, salam shartnomasi muayyan bir mol yoki maxsus bir dala, yoki biror dehqon xo'jaligining mahsulotiga



nisbatan tuzilishi mumkin emas; beshinchidan, shartnomada yetkazib berishning aniq vaqti va joyi to'g'risida aniq kelishilgan bo'lishi lozim; oltinchidan, salam shartnoma imzolanishi bilan yetkazib berilishi lozim bo'lgan narsalarga nisbatan qo'llanilmaydi. Ushbu shartnomalarda ham majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka to'lash nazarda tutilishi mumkin emas.

Istisno. Istisno shartnomasi ham oldi-sotdi shartnomasining bir turi hisoblanib, unga ko'ra, mahsulot hali paydo bo'lishidan oldin oldi-sotdi qilinadi. Bunda sotib oluvchi sotuvchiga muayyan bir miqdordagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga buyurtma beradi. Ushbu shartnomaning muhim sharti narx taraflarning roziligi bilan kelishib olingan bo'lishi lozim. Ushbu shartnomaga ko'ra mahsulot ishlab chiqarish boshlanmasdan oldin buyurtmachi shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin, biroq ishlab chiqarish jarayoni boshlanganidan so'ng bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu turdagi shartnomani o'zining faoliyatida qo'llamoqchi bo'lgan tadbirkorlar, Fuqarolik kodeksining mahsulot yetkazib berish shartnomasiga oid qoidalarini, yuqoridagi qoidalarga zid kelmagan qismlari bo'yicha qo'llashlari mumkin. Bunda yuqoridagi umumiy qoidalar bo'yicha riboga hamda majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka to'lashga yo'l qo'yilmasa, lozim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi Qonuni;
3. Mufti Muhammad Taqiy Usmoniy. Islom moliyasiga kirish. – asar / Toshkent: "Azon kitoblari", 2023. – 288 b.
4. Ehson Shejonak. Global inqirozdan chiqish: Islom iqtisodi. – asar / Toshkent: "Iqro-Nashr", 2022. – 192 b.